

share of employment sector is higher than 70%. The importance and effectiveness of SMEs in reducing unemployment rate can be observed from the graph above.

The second largest share belongs to construction sector, yet any civil engineering literacy campaigns are conducted by construction sector related bank: Sanoat Qurilish Bank(SQB). Uncontrolled construction of buildings lead to decrease in efficiency of the utilities supply: water and energy. The result is that government that provided advantages to private entities failed to control their actions regarding social responsibility.

Banks, MCOs and other loan providing institutions can become core channels to boost number of ESG compliant businesses. They can serve as the main controlling entity of their own legal customers and businesses. Unlike auditing companies, banks will be focused on broader version KYC law, controlling businesses' disclosure of non-financial reports. MCOs, on the other hand, will be the best promoter of green incentives among civilians. The architecture described resembles fragmented allocation of the government's budget. This type of fragmentation of control will enhance economy's antifragility and increase cost-efficiency.[6]

References

[1] OECD SME and Entrepreneurship Papers No. 35 "Financing SMEs for sustainability: Drivers, Constraints and Policies", Table 2.1 <https://dx.doi.org/10.1787/a5e94d92-en>

[2] <https://ecesbf.uz/>

[3] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated December 2, 2022 No. PP-436, Chapter 3 -- <https://lex.uz/ru/docs/6303233#6304756>

[4] The Tragedy of the Commons Author: Garrett Hardin, Source: Science, New Series, Vol. 162, No. 3859 (Dec. 13, 1968), pp. 1243-1248 Published by: American Association for the Advancement of Science -- <http://www.jstor.org/stable/1724745>

[5] <https://agrobank.uz/ru/about/press-center/agrobank-100-kitob-to-plami-taqdimotini-o-tkazdi> <https://agrobank.uz/uz/agrobooks>

[6] Nassim Nicholas Taleb, "Antifragile : things that gain from disorder" ISBN 978-1-4000-6782-4 eISBN: 978-0-679-64527-6

YEVROPADA KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYAT MEXANIZMLARI VA ULARNI O'ZBEKISTONGA JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Avazov Shahzod Baxriddin o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitet talabasi
Ilmiy rahbar: Kenjayeva U.F
u.kenjayeva@tsue.uz

Annotatsiya

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat Yevropa va butun dunyodagi kompaniyalar uchun muhim chora-tadbirlar to'plamiga aylanib bormoqda. Bu shuni anglatadiki, kompaniyalar nafaqat foyda olish, balki axloqiy va ijtimoiy standartlarga rioya qilish

mas'uliyatiga ham ega hisoblanadi. Biroq, bu amaliyot barcha mamlakatlarda bir xilda qo'llanilmaydi. Ushbu maqolada Yevropada korporativ ijtimoiy mas'uliyat xususiyatlari, hamda ularni O'zbekistonga joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Yevropa tajribasi, ijtimoiy mas'uliyat, barqaror rivojlanish, Yevrokomissiya, ekologiya, rag'batlantirish, homiylik, ijtimoiy loyihalar, rentabellik, strategiya*

“Pul topishdan boshqa hech narsa qilmaydigan biznes zaif biznesdir”

Genri Ford,

“Ford Motor Company” asoschisi

Zamonaviy kompaniyalar nafaqat maksimal foyda olishga yo'naltirilgan bo'lishi, balki ma'lum bir ijtimoiy va jamiyatdagi mas'uliyatni ham o'z zimmlariga olishlari kerak. Xodimlarga yo'naltirilgan kadrlar siyosati, mavjud resurslardan barqaror foydalanish hamda o'z mintaqasidagi ijtimoiy majburiyat bugungi kunda ko'plab kompaniyalar uchun juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat yo'nalishlari ko'p yillardan buyon siyosatda muhim rol o'ynamoqda. Iqlim o'zgarishi va iqtisodiyotda barqarorlik haqidagi ko'plab munozaralarni hisobga olgan holda, Yevropa Komissiyasi 2011-yilda yangi Korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyasini e'lon qildi. Keyinchalik korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha chora-tadbirlarini iloji boricha shaffof saqlash maqsadida Yevropa Parlamenti 2014-yilda korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha direktiva yaratadi.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat kompaniyalarni ijobiy obro'ga ega bo'lish uchun muhim o'rin egallaydi.

“Korporativ ijtimoiy mas'uliyat” tushunchasi mehnat munosabatlari atrof-muhitni asrash va xayriya kabi iqtisodiy bo'lmagan omillar asosida kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi bo'lib hisoblanadi. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat ishchi-xodimlar, aksiyadorlar, mol yetkazib beruvchilar, istemolchilar, hamkorlar va jamoatchilikni manfaatlarini himoya qiladigan harakatlar hisoblanadi.

“Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning asosiy maqsad yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin”[2]:

- *Iqtisodiyot.* Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning iqtisodiy jihatlari birinchi navbatda moliyani mas'uliyat bilan boshqarish bilan bog'liq. Kompaniyalar eng kam xarajat evaziga jamiyat uchun eng katta foyda va eng yaxshi ta'minotni bera olishi kerak. Kompaniya hech bo'lmaganda iqtisodiy korporativ darajada xarajatlarni qoplash va manfaatdor tomonlarga ishonchli bo'lib ko'rinish majburiyatini oladi. Bu raqobatga va kompaniyaning yakuniy muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- *Ekologiya.* Atrof-muhitga nisbatan xavfsiz iqtisodiyot ham korporativ ijtimoiy mas'uliyatning bir qismidir. Afsuski, bugungi kunda ko'pgina kompaniyalar uchun foyda va muvaffaqiyat hali ham birinchi o'rinda bo'lib qolmoqda. Ekologik barqarorlik va ishonchlilik iqtisodiy resurs bo'lib, ayniqsa iqlim faolligi davrida menejerlar o'z strategiyalariga korporativ ko'rsatmalar sifatida kiritishlari kerak. Bu ekotizimlarni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson salomatligini muhofaza qilish va tabiiy

resurslardan oqilona foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu sohalar barcha biznes operatsiyalari uchun hisobga olinishi kerak.

● *Ijtimoiy masalalar.* Ijtimoiy adolat korporativ ijtimoiy mas'uliyatining yuqori qismida turadi. Teng imkoniyatlar, daromadlarni adolatli taqsimlash va ijtimoiy tizimlarni saqlash, bularning barchasi ijtimoiy darajaning bir qismidir. Shuningdek, ijtimoiy majburiyat barqaror korporativ strategiyaning muhim qismi sifatida ham qaraladi.

“Hozirgi vaqtda mijozlar uchun kompaniyalarning ekologik va barchaga foydali tarzda faoliyat yuritishi hamda o'z xodimlariga yaxshi munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu ko'proq mijozlarni jalb qilishga hamda foydani oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kuchli korporativ ijtimoiy mas'uliyatga ega kompaniyalar xodimlar uchun sevimli ish beruvchi hisoblanadi. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat chora-tadbirlari malakali xodimlarni jalb qilishni va ularni uzoq muddatda saqlab qolishni osonlashtiradi. Malakali ishchilar yetishmovchiligi ortib borayotganini hisobga olsak, bu kompaniyalar uchun muhim omil hisoblanadi”[3].

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat turli darajalarda va turli sohalarda qo'llaniladi. Biroq, kompaniyaning hajmiga qarab, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy loyihalar juda farq qiladi. Yirik bir xalqaro kompaniya kengroq qamrovga ega bo'lishi va global loyihalarni qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan bir paytda, kichik kompaniya mintaqaviy loyihalarga e'tibor qaratishi va shu tarzda o'z hissasini qo'shishi mumkin.

Quyida ayrim kompaniyalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning misollarini ko'rishimiz mumkin:

1. *“Deutsche Bahn”.* Deutsche Bahn atrof-muhit va ijtimoiy loyihalar uchun turli faolliklarni amalga oshiradi. Germaniyadagi eng yirik transport kompaniyalardan biri sifatida Deutsche Bahn o'zining ijtimoiy mas'uliyatini to'laqonli anglab yetgan deyish mumkin. Uning faoliyatida korporativ ijtimoiy mas'uliyat chora-tadbirlari sifatida quyidagilar ustuvor hisoblanadi:

a) Iqlimni muhofaza qilish bo'yicha: Deutsche Bahn yirik transport kompaniyasi sifatida iqlimni muhofaza qilishga katta e'tibor qaratadi va hisobotlarga ko'ra, 12 yil ichida o'zining CO₂ chiqindilarini chorak qismga kamaytirishga muvaffaq bo'lgan. 2020-yilgi iqlimni muhofaza qilish dasturi bilan kompaniya bu miqdorni yana 15 foizga qisqartirishni maqsad qilgan.

b) Xodimlarga bo'yicha: Deutsche Bahn ta'lim, madaniyat, sport va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi loyihalarda ishtirok etish orqali o'z xodimlarining bag'rikenglik, adolatlilik va ijtimoiy ko'nikma va majburiyatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

c) Qo'llab-quvvatlanadigan loyihalar: "Off-Road-Kids fondi" (ijtimoiy ish), "Nafrat va zo'ravonlikka qarshi stajyorlar" (tinch hamkorlik), "Chance plus" (ta'lim), "Bahn basketbol akademiyasi" (sport va salomatlik) va "Energiya tejavchi haydash uslublari" loyihasi (iqlimni muhofaza qilish).

2. *Daimler Group.* Global miqyosdagi avtomobil konserni sifatida Daimler ham katta ijtimoiy mas'uliyatga ega. Shuning uchun Daimlarning korporativ ijtimoiy mas'uliyat chora-tadbirlari juda murakkab va global ta'sirga ega deyish mumkin:

a) Xodimlarga nisbatan majburiyat va ixtiyoriy ishlar: “ProCent” tashabbus loyihasi orqali Daimler ham xodimlar tomonidan xayriya qilingan har bir sent uchun bir sent xayriya qiladi. Shunday qilib, “ProCent” bolalar ta'limini, sog'liqni saqlash

sohasidagi infratuzilmani hamda boshqa ijtimoiy loyihalarni (masalan, uysizlar uchun “GoBanyo” dush avtobusi loyihasi yoki G'arbiy Afrikadagi Silly hamjamiyatida kasbiy ta'lim uchun “FOCUS” loyihasi) qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, “Day of Caring” (G'amxo'rlik kuni) va “auf Augenhöhe” xayriya kampaniyasi kabi boshqa ijtimoiy loyihalar ham Daimler tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

b) Global tarzda: Bundan tashqari, Daimler butun dunyo bo'ylab yordam loyihalarini ishga tushirgan va yoki shunga o'xshash loyihalarni xayriya orqali qo'llab-quvvatlaydi. Bunga misol qilib, Kongodagi oilalar mustaqilligi uchun “Bon Pasteur” notijorat tashkilotini keltirish mumkin.

Shu o'rinda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning afzalliklari va kamchiliklari haqida ham to'xtalib o'tishim joizdir. Tabiiyki, har bir kompaniya korporativ ijtimoiy mas'uliyatga turlicha yondashadi va buning natijasida ba'zi kamchiliklar ham kelib chiqishi mumkin. Hozirgi kunda kompaniyalar o'z jamiyatining farovon kelajagiga hech qanday hissa qo'shmasligi deyarli imkonsiz. Shuning uchun har bir kompaniya individual afzalliklar va kamchiliklarni bir-biriga bog'lab, qaysi chora-tadbirlar o'zi uchun eng ahamiyatli ekanligini baholay olishi kerak.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning afzalliklari sifatida brend imijining yaxshilanishi, mijozlarning uzoq muddatga qolishi, yuqori savdo hajmi, mamnun xodimlar, samarali kadrlar siyosati, investorlarning oson jalb qilinishi hamda yuqori rentabellik kabi elementlarni keltirish mumkin bo'lsa, kamchiliklari sifatida esa ba'zi paytdagi yuqori xarajatlar (masalan, malaka oshirish va treninglar uchun), maqsadlarga ba'zan erishib bo'lmasligi (bu esa demotivatsiyaga olib kelishi mumkin), ijtimoiy loyihalar uchun xarajatlarning oshishi, ba'zan xodimlarni asosiy vazifalaridan chalg'itishi kabi holatlarni sanab o'tish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, korporativ ijtimoiy mas'uliyatning asosiy maqsadi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan barqaror biznes amaliyotini yaratishdir.

Rivojlanayotgan davlat sifatida O'zbekiston ham korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha sa'y-harakatlarini kuchaytirishi kerak deb hisoblaymiz. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat siyosati va dasturlarini rivojlantirish mamlakatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sharoitlarni yaxshilash bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, O'zbekistonda korporativ ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda ba'zi to'siqlar mavjud. Masalan, mehnat va inson huquqlarini hurmat qilish, ekologik ma'uliyatni oshirish va kompaniya tomonidan korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyasini yuritish nuqtai nazaridan hali ko'p muammolar mavjud. O'zbekistondagi yana bir asosiy muammo bu korporativ ijtimoiy mas'uliyat boshqaruvi uchun institutsional asosning yo'qligidir.

O'zbekistonda korporativ ijtimoiy mas'uliyat mexanizmlarini samarali amalga oshirish uchun kompaniyalar, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining yaqin hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hukumati kompaniyalar uchun korporativ ijtimoiy mas'uliyat monitoringini tizimlashtirishni joriy etishi kerak. Bunda kompaniyalar tomonidan korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatmalariga rioya etilishini ta'minlovchi nazorat organlari hamda monitoring mexanizmlarini joriy etish ham muhim rol o'ynaydi.

Natijada O‘zbekistonda korporativ ijtimoiy mas’uliyatning samarali amaliyotini joriy etish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va mustahkamlanishiga erishish mumkin. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat tashabbuslari mahalliy korxonalarni ishlab chiqarish va sotishda qo‘llab-quvvatlashga, atrof-muhit sharoitlarini yaxshilashga va ijtimoiy imtiyozlar yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. European Confederation of Directors’ Associations. “A Guide to Corporate Governance Practices in the European Union”. Elektron manba: (www.ifc.org)

[2]. “Was bedeutet Corporate Social Responsibility?”
<https://factorialhr.de/blog/csr/#:~:text=Der%20Begriff%20umfasst%20s%3%A4mtliche%20soziale,auch%20die%20Unternehmensf%C3%BChrung%20mit%20ein>

[3]. “Corporate Social Responsibility (CSR): Maßnahmen & Beispiele”.
<https://blog.hubspot.de/sales/corporate-social-responsibility#:~:text=CSR%2DMA%C3%9Fnahmen%20f%C3%BCr%20die%20Umwelt&text=Nutzung%20erneuerbarer%20Energien,Kurze%20Transportwege%20und%20Lieferketten>

[4]. Bolshakov S. N. Corporate Governance and Social Responsibility in Europe // Corporate governance and innovative economic development of the North: Bulletin of the Research Center of Corporate Law, Management and Venture Capital of Syktyvkar State University. 2018. №1. P. 90-99.

[5]. Z.A. Ashurov “Korporativ ijtimoiy ma’suliyat”. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriot-matbaa uyi, 2022. –164 s

[6]. Ziwei Zhang, Hu Fu, Shiqi Xie, Javier Cifuentes-Faura, Urinov Bobur Nasilloevich, Role of green finance and regional environmental efficiency in China, Renewable Energy, 2023, ISSN 0960-1481, <https://doi.org/10.1016/j.renene.2023.05.076>.

ВНЕДРЕНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Сайфуллаева Мадина Исматовна

докторант Ташкентского государственного экономического университета

madina.sayfullaeva@gmail.com

Аннотация

Статья освещает сущность и основные принципы действия принципов ESG, данные критерии (environmental, social and governance) стали важными инструментами для улучшения экологических и социальных условий и повышения устойчивости предприятий. Особо уделяется внимание применению принципов ESG в строительстве, которое имеет значительный эффект для компаний и всего общества.

Ключевые слова. Принципы ESG, строительство, экологические условия, социальных условий, корпоративная ответственность.